

**1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi**

1. Simoneseki sulhiga ko'ra, Yaponiya qaysi hududlarni qo'lga kiritgan edi?  
A) Lyaodun, Kurill, Saxalin orollarini  
B) Lyaodun, Tayvan, Peskador orollarini  
C) Syangan, Tayvan va Penxu orollarini  
D) Tayvan, Penxu va Gongong orollarini
2. Lotin Amerikasiga AQSH kapitali kirib kela boshlagan davrni aniqlang.  
A) XIX asr oxiri  
B) XX asr boshlari  
C) XIX asr o'rtalari  
D) XIX asr boshlari
3. XVIII asr boshlarida vujudga kelgan Qo'qon xonligi g'arbda qaysi hudud bilan chegaralanar edi?  
A) Qorategin, Darboz, Ko'lob, Sho'g'onon  
B) Buxoro va Xiva xonligi  
C) Sharqiy Turkiston va Yettisuv  
D) Vaxsh, Kofirkon, Panj bo'yi
4. Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishining qaysi bosqichi uzoqroq davom etgan?  
A) to'rtinchi bosqichi  
B) uchinchi bosqichi  
C) ikkinchi bosqichi  
D) birinchi bosqichi
5. Farg'onada istiqlolchilik harakati qachon o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi?  
A) 1919-yil yozining oxiri va kuzida  
B) 1918-yil bahorining oxiri va yozida  
C) 1920-yil yozi va kuzida  
D) 1919-yil qishining oxiri va bahorida
6. 1830-yilda Parij shahrida boshlangan inqilobning maqsadi nima edi?  
A) respublika tuzumi o'rnatish  
B) cheklangan monarxiya tuzumi o'rnatish  
C) imperiyani qayta tiklash  
D) ishchilarga saylov huquqi berish
7. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida quyidagi qaysi hududda Italiyaning mustamlaka rejaları amalga oshmadi va bu hudud o'z mustaqilligini saqlab qoldi?  
A) Efiopiya  
B) Somali  
C) Liviya  
D) Eritreya
8. Buxoroda ashtarxoniylar hukmronligi davrida qaysi omillar natijasida markaziy hokimiyat zaiflashgan? 1) Qo'qon xonligi bilan bo'lib o'tgan urushdagi mag'lubiyat; 2) devonlar orqali boshqaruv tizimining barbod bo'lishi; 3) taxtning otadan bolaga o'tmaganligi; 4) viloyatlarda hokimiyat viloyat hokimlari qo'lida to'planishi  
A) 2, 4  
B) 1, 4  
C) 2, 3  
D) 1, 3
9. O'rta Osiyoning quyidagi shaharlari Podsho Rossiyasi qo'shinlari tomonidan egallangan yillariga qarab to'g'ri xronologik tartibda ko'rsatilgan javobni belgilang. 1) Kattaqo'rg'on; 2) Namangan; 3) Jizzax  
A) 3, 1, 2  
B) 3, 2, 1  
C) 1, 3, 2  
D) 1, 2, 3
10. 1885-yilda Kaspiyorti temiryo'lining qurilishi va 1887-yil oxirlarida Amudaryo flotiliyasining ta'sis etilishi Xiva xonligiga qanday ta'sir ko'rsatgan?  
A) Buxoro bilan savdo-sotiqni rivojlantirgan  
B) xonlik iqtisodiy ahvolini ko'tarilishiga olib kelgan  
C) Rossiyaga qaramlikni yanada kuchaytirgan  
D) Buyuk Britaniya ta'siri ortishiga olib kelgan

**2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi**



11. IX asr oxiri – X asr boshida qaysi Rus knyazi Vizantiya bilan manfaatli shartnoma tuzib, rus savdogarlariga Vizantiya bilan bojsiz savdo qilish imkonini yaratadi?

- A) Ryurik                      B) Yaroslav                      C) Vladimir                      D) Oleg

12. Tarixiy-mantiqiy ketma-ketlik (moslik) berilgan javobni toping (oʻrta asrlar).

- A) knyaz Vatslav - Piastlar sulolasi - xristian dini  
B) imperator Yustinian I - ostgotlar - Ravenna  
C) qirol Karl Martell - Puate janggi - Muqaddas Rim imperiyasi  
D) qirol Filipp IV – “Yuz yillik urush” - Tyudorlar sulolasining tugashi

13. Buyuk ipak yoʻlida joylashgan shaharlarni ketma-ketligida joylashtiring?

1. Sian 2. Yorkent 3. Samarqand 4. Dunxuan 5. Buxoro 6. Marv 7. Termiz  
A) 1, 4, 2, 3, 5, 7, 6                      C) 4, 1, 2, 3, 6, 5, 7  
B) 1, 4, 3, 2, 5, 6, 7                      D) 4, 1, 2, 3, 5, 7, 6

14. Kimning esdaliklari fransuz va nemis tillariga tarjima qilingan?

- A) F. Beneveni                      C) N. Muravyov  
B) Blankennagel                      D) N. Ignatyev

15. Maʼlumki, Oʻrta Osiyoda taraqqiyparvarlar rivojlangan jamiyat yaratishdek oʻz gʻoyalarini amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurash olib borishga alohida ahamiyat berganlar. Ular bu vazifalarni amalga oshirishda quyidagi qaysi yoʻnalishlarni ustuvor deb hisoblaganlar? 1) oʻlkada yangi usul maktablari tarmogʻini kengaytirish; 2) Davlat dumasida savdo-sotiq egalariга imtiyoz berish; 3) qobiliyatli yoshlarni chet elga oʻqishga yuborish; 4) rus burjuaziyasini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash; 5) turli maʼrifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop etish; 6) soliqlar masalasida radikal islohotlar oʻtkazish

- A) 1, 3, 5                      B) 1, 4, 6                      C) 2, 4, 5                      D) 2, 3, 6

16. Bir yilda sodir boʻlgan voqealar berilgan javobni aniqlang.

1) Inglizlarning Markaziy Osiyoga A.Byorns boshchiligida yuborgan elchilari Buxoroga kirib keldi; 2) Pekinda Xitoy-Qoʻqon shartnomasi imzolandi; 3) Inqilob natijasida Iyul monarxiyasi quladi, Fransiya Respublika deb eʼlon qilindi; 4) Buyuk Britaniyada parlament islohoti oʻtkazilib, unga koʻra yirik sanoat markazlariga 144 ta oʻrin ajratib berildi; 5) Urugvay toʻla mustaqillikka erishdi; 6) Braziliya Portugaliyadan mustaqil deb eʼlon qilindi.

- A) 2, 4, 6                      B) 1, 2, 4                      C) 1, 3, 5                      D) 3, 5, 6

17. Notoʻgʻri javobni toping.

- A) Mil. avv. 328-yil kuzida Spitamanning Aleksandr bilan hal qiluvchi jangi boʻlib oʻtadi. Kuchlar teng boʻlmaganidan Spitaman yengilib, toqqa chekinadi.  
B) Aleksandr soʻgʻd zodagonlari – Xoriyen va Oksiartning Hisor togʻlarida joylashgan qalʼalarini qoʻlga kiritib, Oksiartning qizi Ravshanakka uylanadi.  
C) Yunon-makedon qoʻshinlarining bosqinchlik yurishlari Oʻrta Osiyo yerlarini xarobazorga aylantirdi, aholining katta qismi qirilib ketdi.  
D) Bess Baqtriyaning satrapi boʻlgan. U Baqtra shahrini dushmanga qoldirib, Amudaryoning narigi tarafiga qochib ketadi

18. Franklar davlatida qirolning qaysi ishlarini boshqarishni graflarga topshirishi ularning hokimiyatini kuchaytirdi?

- A) sud                      B) moliya                      C) soliq                      D) iqtisodiyot

19. Xitoyda ilmiy bilimlarning rivojlanishini taqozo etgan omil qaysi javobda toʻgʻri berilgan?



- A) yuqumli kasalliklar, ochlik va qurg'ochilikni tez-tez takrorlanib turishi;
- B) mahalliy aholining kundalik hayoti ziroatchilik, hunarmandchilik, binokorlik bilan bog'liqligi;
- C) davlatning iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlari;
- D) odamlarning o'zini qurshab turgan tevarak-atrofni tushunishga intilishi;

20. Birinchi jahon urushining Buyuk Britaniya uchun oqibatlari to'g'ri berilgan javoblarni belgilang.

- 1. Urush Buyuk Britaniyaning hukmron doiralariga katta siyosiy g'alaba va obro' olib keldi.
  - 2. Mustamlaka imperiyasi yanada kengaydi. Katta reparatsiya olindi.
  - 3. Buyuk Britaniya AQSHdan va o'z dominionlaridan qarzdor bo'lib qoldi.
  - 4. Iqtisodiy o'sish sur'atlari juda past bo'lib, inqiroz va turg'unlik odatiy holga aylandi.
- A) 2, 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 2, 3 D) 1, 3

21. Yevropaliklar tomonidan Hindiston va Amerikaga dengiz yo'llarining ochilishi muhim savdo yo'llarining yo'nalishini o'zgartirib, bir qator shaharlarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ushbu shaharlar berilgan to'g'ri javobni toping.

- A) Lissabon va Seviliya
- B) Antverpen va Venetsiya
- C) Parij va London
- D) Venetsiya va Anqara

22. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati davrida qabul qilingan Nizomlar asosida amalga oshirilgan ishlari mos ravishda berilgan javobni aniqlang.

1) 1867-yilgi "Nizom loyihasi" bo'yicha; 2) yangi 1886-yilgi "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom" bo'yicha. a) muvaqqat harbiy-sudlov komissiyalari tuzildi; b) uyezd sudlari bekor qilindi; c) general-gubernatorlik Devonining sudlov bo'limi tashkil etildi; d) sud tergovchilari, viloyat prokurori va ularning yordamchisi lavozimlari joriy etildi; e) Turkiston viloyatini boshqarish bo'yicha harbiy mahkama joriy etildi.

- A) 1-a, c, 2-b, d
- B) 1-a, b, 2-c, d
- C) 1-a, d, 2-b, e
- D) 1-a, c, 2-d, e

23. Quyidagilardan asr boshida yuz bergan voqeani aniqlang.

- A) okean to'liqlariga bardosh beruvchi, shamolga qarshi suza oladigan yelkanli kema – karavella yaratildi
- B) gollandiyaliklar Avstraliya qirg'oqlarini tadqiq eta boshladilar
- C) Yevropa savdo chorrahalari Shimoliy dengiz qirg'oqlariga ko'chdi
- D) Rus yerlarining Moskva atrofida birlashish jarayoni nihoyasiga yetdi

24. Podsho Rossiyasi qo'shinlari tomonidan sharqiy Turkistonning Ili o'lkasidagi qo'zg'olon bostirilgan yilda qoraqalpoqlarning qaysi volostida mustamlakachilarga qarshi xalq qo'zg'oloni boshlangan?

- A) Mo'ynoq va Nukus volostida
- B) Qo'ng'iroq va Nukus volostida
- C) Chimboy va Biybozor volostida
- D) Biybozor va Nukus volostida

25. Simon Bolivar Buyuk Kolumbiya Prezidenti lavozimini egallagach amalga oshirmoqchi bo'lgan qaysi tadbir pomeshchiklarning qarshiligiga duch kelib amalga oshmay qolgan?

- A) Ispaniyadan ozod qilingan barcha Amerika respublikalarining konfederatsiyasini tuzish loyihasini ishlab chiqishi
- B) Yirik pomeshchiklarga soliq solish
- C) Yirik pomeshchiklarning yerlarini musodara qilish to'g'risida qonun loyihasini ishlab chiqishi
- D) Chet el kapitali kirib kelishiga to'sqinlik qilish to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqishi



**3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi**

26. Qaysi Xiva xoni davrida qozoq cho'llarining Rossiya imperiyasi va Xiva xonligi o'rtasida bir-birini ajratib turuvchi hudud bo'lib qolishi uchun astoydil harakat qilingan?
27. Sharqdan G'arbga boruvchi savdogarlar uchun qoraqalpoqlar tayyorlagan qaysi mahsulot xaridorgir edi?
28. Qo'qon hukmdorlaridan kim o'zidan norozi bo'lgan shahzodalarni turli viloyat va tumanlar hokimi etib tayinlash orqali muxolifatning qarshiligini sindira olgan?
29. XV asr oxirida "Yer olmasi" deb atalgan globusni kim yaratdi?
30. Qoraxoniylar davlati tugatilgan yilda Xorazmda kim hukmronlik qilayotgan edi?
31. Qaysi voqea yuz berishi bilan eng qadimgi urug'chilik tuzumi yakunlandi?
32. Turkiston o'lkasida boshlang'ich maktablar, rus-tuzem maktablari tarmog'ini yaratish loyihasini ishlab chiqqan general-gubernator kim?
33. 1929-yil 17-fevral – 2-martda O'zbekiston Kommunistik partiyasining IV syezdi qaysi shaharda bo'lib o'tgan?
34. Turkiston Muxtoriyatining faoliyatiga katta xavf deb qaragan va zudlik bilan tugatishga harakat qilgan Toshkent Soveti rahbari kim edi?
35. XIX asr oxirida qaysi davlatda "Musulmonlar ligasi" deb nom olgan siyosiy tashkilot paydo bo'ldi?
36. Fransiyada XVIII asrga kelib uchinchi tabaqa qarashlarining ifodachisi sifatida maydonga chiqqan siyosat arbobi kim?
37. XIX asr oxirlarida qaysi davlatda Ahmad Orabibey tomonidan oliy davlat organi – Muvaqqat kengash tuzilgan edi?
38. "Buxoroyi sharif mang'it amirlari muxtasar tarixi" asarining muallifini yozing.
39. Ingliz qirollari Garold kimlar bilan bo'lgan jangda halok bo'ladi?
40. XX asrda qaysi davlatda "Bujua inqilobi" nomli dehqonlar harakati sodir bo'lgan?

